

FE'L SO'Z TURKUMIDA OBYEKTЛИ FE'LLAR GURUHI

Qodirjon Mo'ydinov,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

gumanitar fanlar fakulteti,

o'zbek tilshunosligi kafedrasи dotsenti, filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baxramova Nodira,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsya: obyektlı harakat fe'llari obyektga yo'naltirilgan harakatni ifodalab, tushum kelishigini olgan otlar bilan ma'lum bir nutq birligini hosil qiladi. Obyektlı harakat fe'llari semantik jihatdan turli xil bo'lib, ular tushum kelishigidagi so'zlar bilan bir qatorda bilan, orqali, deb, tomon, uzra kabi ko'makchili qurilmalarni ham talab qiladi.

Annotatsya: action-verbs, with an object express an action directed to an object and form a certain speech unit with nouns that receive the agreement does. Objectaction verbs are semantically different and are income along with words in agreement with, through, that, towards, like, also, requires assistive devices

Аннотироваться: глаголы предметного действия выражают предметное действие и образуют определенную речевую единицу с существительными которые стоят в винительном падеже Глаголы предметного действия семантически различны они стоят наряду со словами в винительном падеже с через это также требует вспомогательных средств таких как сторона сторона и сторона

Kalit so'zlar: obyekt, sema, kelishik, harakat, jarayon, tasavvur etmoq, holat.

Key words: object, sema, agreement, action, process, imagine, situation.

Ключевые слова: объект, сема, соглашение, действие, процесс, представление, состояние

Obyektli harakat fe'llari bevosita obyektga yo'naltirilgan, unga o'tadigan harakatlarni ifodalab, asosan, tushum kelishidagi otlar bilan muayyan nutq birligini hosil qiladi. Obyektli harakat fe'llari semantik jihatdan rang-barang bo'lib, ular nafaqat tushum kelishidagi so'zlarni, balki *ilan, orqali, deb, tomon, uzra* kabi ko'makchili so'zlarni ham talab qiladi. Fe'lning tobe so'zlar bilan aniqlashtirilish darajasi, birikmaning hajmi bevosita fe'l ma'nosiga bog'liqdir. Obyektli harakat fe'llari odatda "to'ldirilish"ga muhtojligi bilan farqlanadi. Ba'zi obyektli harakat fe'llari o'timsizlashib, obyektni talab qilmasligi mumkin. Bunda u absolyut ma'no ifodalab, harakat jarayon sifatida tasavvur etiladi. Masalan, "Bog'cha bolalari o'qiydi, yozadi" gapidagi "o'qimoq, yozmoq" fe'llari *nimani?* so'rog'iga javob bo'luvchi gap bo'lagini talab qilmaydi. Chunki fe'lida subyekt harakatining biror obyektga o'tganligi emas, balki umuman fe'l anglatgan harakatni bajara olishiga, shu bilan shug'ullana olishiga qodir ekanlik ma'nosini anglashiladi. O'zbek tili materiallarida bu hodisa fe'lning umumlashgan ma'no ifodalashi sifatida qayd etiladi.

Natijali ijro ifodalovchi harakat fe'llarining ma'no tuzilishi

O'zbek tilida natijali ijroni ifodalovchi fe'llar nisbatan ko'p uchraydi. Mazkur fe'llarning asosiy semantik xususiyati natijali ijroni ifodalashdir. Fe'lida qayd etilgan harakat natijasida obyektlar yaratiladi. Ular o'zaro bog'lanadi, biriktiriladi yoki ularning holati, shakli, sathi, joylashuvi o'zgartiriladi. Natijali ijroni bildiruvchi fe'llarning subyekti, asosan, shaxs bo'ladi. Chunki bu harakatlarni faqat inson amalga oshira oladi. Natijali ijro ifodalovchi fe'llar, asosan, obyektli fe'llar bo'lib, muayyan obyektlar bilan bog'lanadi, tub va yasama fe'llardan tashkil topadi. Ushbu fe'llarning farqlovchi semalari quyidagilar:

1. "Obyektni yaratish"
2. "Obyektni bog'lash, biriktirish va aralashtirish"
3. "Obyektning shakli, sathini o'zgartirish"

1."Obyektni yaratish" farqlovchi semali harakat fe'llari:

To'qimoq – buyum yoki qurilma yaratmoq. M.: *G'ijim ro'mol to'qiyman, maktab borib o'qiyman* (xalq qo'shig'idan).

Yasamoq – biror narsani yaratmoq, tayyorlamoq. M.: *U ikkita yog‘ochni biriktirib ot yasadi.*

Qurmoq – tiklamoq, bunyod etmoq, solmoq. M.: *Qush qayerga in qurishni biladi.*

2.Obyektni bog‘lash, biriktirish, aralashtirish farqlovchi semali harakat fe’llari. Bunday ma’noli fe’llar 3 guruhga bo‘linadi:

A) obyektni bog‘lash ifodali fe’llar:

Bog‘lamoq – biriktirib, tugmoq. M.: *Alpomish g‘ozni davolab, qanotiga xat boylab, yurtiga elchi qilib uchirganidan ham xabaringiz bor.*

Ulamoq – bir-biriga bog‘lamoq. *Otning tizginiga arqon ulab bering, o‘zim haydar ketaveraman* (A.Qahhor).

Tang‘imoq- mahkam siqib, o‘rab bog‘lamoq. M.: *Ro ‘molingni boshingga tang‘ib ol, hozir ketamiz.*

Chandimoq – juda mahkam bog‘lamoq, sirib qo‘ymoq. M.: *Sotiboldi yetaklab kelgan uchinchi ot egariga Mirkomil chandib bog‘lagan edi* (H.G‘ulom).

Yuqorida izohi keltirilgan fe’llar obyektni bog‘lash ifodali fe’llardir. O‘zbek tilida ma’no bo‘yoqdorlik yuqoriligi sababli, “bog‘lash” ma’noli ko‘pgina fe’llarni uchratishimiz mumkin.

B) obyektni biriktirish ifodali fe’llar. Mazkur ifodali fe’llar obyektni obyektga biriktirish harakatini ifoda etadi. Bu harakat subyekt tomonidan bajariladi. Uning o‘zi esa avvalgi guruhdan farqli ravishda, shu obyektlarning biri o‘rnida bo‘lishi kuzatilmaydi.

Yelimlamoq - yelim bilan yopishtirmoq. M.: *Qizgina, shu kitob varag‘ini yelimlab bering* (Y.Akram).

Yopishtirmoq – biriktirmoq, jipslashtirmoq. M: *Salim o‘zi yasagan yelim bilan qog‘ozlarni bir-biriga yopishtirdi.*

Yuqoridagi fe’llar semantik jihatdan farqlanmaydi, lekin yasalishiga ko‘ra farqi kuzatiladi.

O‘rnatmoq - qurmoq, yasamoq, o‘rnashtirmoq. M.: *Maydon o‘rtasiga haykal o‘rnatdilar.*

Ko‘rinadiki, mazkur farqlovchi semali fe’llar qatnashgan gaplarda ikkita obyekt mavjud bo‘ladi, ya’ni ular bir-biriga biriktiriladi. Bu guruhga, shuningdek, tikish harakatini ifodalovchi fe’llar ham kiradi. Buning natijasida muayyan buyumlar yangilanadi, tiklanadi.

Yamamoq – butunlamoq, yamoq solmoq. M: *Eskini yamaguncha, esing ketar* (maqol).

Tikmoq – ip bilan choklab ulamoq, biriktirmoq. M: *Onang rahmatlik to‘rt bolani shu mashinada kiyim-kechak tikib boqardi.* (F.Usmonova). *Hasanali uzilgan ot asboblarini ulab tikardi* (A.Qahhor)

V) Obyektni aralashtirish ifodali fe’llar.

Ushbu farqlovchi semali fe’llar ma’nosida obyektning (ko‘pincha suyuqlikning) boshqa obyekt bilan aralashtirilishi anglashiladi. Ya’ni bunda obyektlar bir-biriga birikib, aralashib, qorishib ketadi. Bu harakatlarning bajaruvchisi, asosan, shaxs bo‘ladi.

Aralashtirmoq – bir-biriga qorishtirmoq. M: *Massani aralashtirib tur, hozir boraman. Qiymani aralashtirib, xamirga solib tusing.* (A.Muxtor).

Qorishtirmoq – bir –biriga aralashtirmoq. M: *Yefim Danilovich beton qorayotgan ishchilar tomonga qarab qichqirdi* (A.Muxtor).

3. Obyektning shakli, sathini o‘zgartirish farqlovchi semali fe’llar.

Bular quyidagi turlarga ega:

A) obyekt shaklini o‘zgartirish ifodali fe’llar:

Cho‘zmoq – tortib uzaytirmoq. M: *Nima ovqat qilishni bilmay o’tirdim, keyin lag‘mon cho‘zishni boshladim* (Y.Sa’dullayeva).

Yapaloqlamoq – yapaloq qilmoq. M.: *Mixning uchini yapaloqladim.*

Qayramoq – charxlab, ishqab o‘tkirlamoq. M.: *Duradgor ustaran qayradi.*

Hadicha xola pichoqni qo‘liga olib qayray boshladi (F. Musajonov).

B) Obyekt sathiga ishlov berish ifodali harakat fe’llar. Mazkur fe’llar obyekt sathida amalga oshirilgan harakatlarni ifodalaydi, ya’ni *tekislash, jilo berish, bezash, o‘yish, chuqurlashtirish* va boshqalar.

Dazmollamoq – dazmol bosib, g’ijimini tekislamoq. M.: *Xo’jayinning kiyimlari dazmollandi.*

Tekislamoq – tekis, yassi, silliq qilmoq. M.: *Qizil cho ‘g‘ bo ‘lgan temir parchasini bolg‘a bilan gurs-gurs urar, yassilar, cho ‘zar, qayirar edi* (Oybek).

Yo‘nmoq – yo‘nib, tekislab ma'lum shaklga kiritmoq. M.: *Polvon bir toshni tanlab oldi-da, yaxshilab artishga va bir tomonini yo ‘nishga buyurdi* (A.Qahhor).

Demak, obyektiv borliqdagi turlicha harakatlarni aks ettiruvchi fe'lllar semantikasining murakkab xarakteri mantiqiy ravishda harakat fe'lllarining bir necha ko‘rinishi va ularning ichki bo‘linishlaridan iborat semantik guruhanishni yuzaga keltirdi. Fe’llarni ketma-ket berishda ular orasidagi ma’no darajalanishi hisobga olindi.

FOYDALANILGN ADBIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Нарзиева М. Қон-қариндошлиқ номларининг компонент таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986, 5-сон, 47-49-б.
- 2.Нарзиева М. Ўзбек тилида шахсни ёш жиҳатдан тавсифловчи отларнинг маъно таркиби. Филол. фан. номз... дис.-Бухоро, 1992, 130 б.
- 3.Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т., “Ўқитувчи”, 1995, 66-б.
- 4.Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. –Т.: Изд.Фан, 1989. -191 с.